

# AOKAda "O'zkimyosanoat" AJ va tizim korxonalari Komplayens xizmatlarining 1-yarim yillikda amalga oshirilgan ishlari yuzasidan brifing o'tkazildi.

// 05.08.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/video/komplayens-xizmatining-birinchi-yarim-yillikda-amalga-oshirilgan-ishlar-yuzasidan-brifing>

Unda "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi — matbuot kotibi Rustambek Eshbekov quyidagilarni ma'lum qildi.

Hisobot davrida kimyo sanoati korxonalarida korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash, o'g'rilik, talon-taroj qilish, korxonalar va davlat mulklarini o'zlashtirish va ta'magirlik holatlariga chek qo'yish maqsadida jami 31 ta xizmat surishtiruvchi o'tkazildi, natijalari bo'yicha tegishli xulosalar tayyorlandi va aybdorlarga nisbatan tegishli choralar ko'rildi.

Natijada 23 nafar xodim jinoyit javobgarlikka tortildi, 17 nafar xodim egallab turgan lavozimidan ozod etildi, 12 nafar mas'ul xodimlarga hayfsan berildi, 16 nafar xodimning ish haqidagi jarima undirildi, 9 ta holat bo'yicha to'plangan materiallar qonuniy chora ko'rish uchun huquq tartibot organlariga yuborildi.

Shuningdek, joriy yilning 1-yarim yilligida jami bo'lib 1,2 mlrd.so'm tovar moddiy boyliklari kamomadi, 17,1 mlrd.so'mlik tayyor mahsulotga qo'shib yozish holatlari aniqlangan. Hisobot davrida tizim korxonalarida xaridlar jarayonining ochiq va shaffofligini ta'minlash hamda ularni "Davlat xaridlari to'g'risida" Qonuni talablariga muvofiq o'tkazilishini ta'minlanishi natijasida jami bo'lib 3,1 mlrd.so'mlik pul mablag'larining asossiz sarflanishining oldi olinib, iqtisod qilindi.

Shu bilan birga, hisobot davrida "Farg'onaazot" va "Maksam-Chirchiq" aksiyadorlik jamiyatlarida reaksiyon quvurlarining talon-taroj qilinishi hamda tayyor mahsulotga qo'shib yozish holatlari aniqlanib, korxonalarining 14 nafar mas'ul mansabdor shaxslariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi DXX tomonidan jinoyit ishi qo'zg'atilib qamoq tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan va hozirda tergov ishlari davom etmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" talablariga muvofiq xizmat vazifasiga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori va o'rta bo'lgan 2870 nafar xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiyalar to'ldirildi.

Hisobot davrida jami 51 ta holat bo'yicha manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar aniqlanib, hujjatlashtirilgan bo'lsa, 2021-yilning shu davrida 12 ta holat aniqlangan. Jumladan, "Maksam-Chirchiq" AJda 18 ta, "Navoiyazot" AJda 21 ta, "Farg'onaazot" AJda 6 ta, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda 3 ta va "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJda 1 ta holatda o'zaro yaqin qarindoshlar bevosita qo'l ostida yoki rahbarligida ishlashi natijasida vujudga kelgan manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlandi. Hozirda ushbu xodimlarni korxonaning boshqa sexlariga va lavozimlariga o'tkazish orqali manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari ko'rilmog'da.

Tizim korxonalarida jami 584,3 mln. so'mlik tovar moddiy boyliklari talon-taroj qilinishining oldi olindi va aybdor shaxslarga ichki tartib-qoidalar asosida intizomiy choralar ko'rildi.

Joriy yilda jamiyat va tizim korxonalari xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida komplayens xizmati xodimlari va huquq-tartibot organlari xodimlari ishtirokida jami 186 ta tushuntirish-profilaktik tadbirlari amalga oshirilgan.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi hamda shaffofligini ta'minlash maqsadida 2022-yil 1-yarim yilligi davomida ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlari orqali sohaga oid jami 167 ta materiallar joylashtirilgan.

"O'zkimyosanoat" AJ korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashni tizimli va muntazam ravishda davom ettiradi. Shu bilan birga, Jamiyat doim ochiqlik tarafdori ekanligi hamda sizda tizimdagi korrupsion holatlar yuzasidan ma'lumot yoki murojaatlar bo'lsa **(78) 140-74-48** ishonch telefonlariga qo'ng'iroq qilishingiz mumkinligini eslatib o'tamiz.